

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2023 Vol. 1**

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-9238

# **GOLDEN SCRIPTS**

# **OLTIN BITIGLAR**

**2023 Vol. 1**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.goldenscripts.navoiy-uni.uz](http://www.goldenscripts.navoiy-uni.uz)**

**MUNDARIJA**

**MATNSHUNOSLIK. MANBASHUNOSLIK**

**Aftondil Erkinov**

Navoiyning Metropoliten muzeyi devoni  
qo'lyozmasi va uning tarkibi masalasi (905/1499-  
1500-yil, xattot – Sultonali Mashhadiy) 4

**Kemal Yavuz Ataman**

Babürşah ve Küreselleşen Hindistan 21

**ADABIYOTSHUNOSLIK**

**Ilyos Ismoilov**

Iskandar mavzusining ilk diniy-tarixiy manbalari 35

**Ülkər Baxşiyeva**

Nizami Gəncəvinin “İskəndərnamə” poemasının  
bədn-estetik xüsusiyyətləri 53

**Ozoda Tojiboyeva**

“Tarje’bandi Xomisa” – Alisher Navoiyga  
izdoshlik mahsuli 66

**LINGVISTIKA**

**Samixon Ashirboyev**

Alisher Navoiy nasriy asarlarida qo'shma gap  
transformatsiyasidagi sodda gaplar sintaksisi 79

**Farhad Rahimi**

Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün  
Değerlendirilmesi 92

**BOSH MUHARRIR**

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR**

**O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

**MAS'UL KOTIB**

Ozoda Tojiboyeva

**TAHRIR HAY'ATI**

Karl Rayxl (Germaniya)  
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)  
Seyhan Tanju (Turkiya)  
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)  
Benedek Peri (Vengriya)  
Vahit Turk (Turkiya)  
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)  
Eunkyung Oh (Koreya)  
Nazef Shahrani (AQSh)  
Boqijon To'xliyev  
Muhammadjon Imomnazarov  
Bilol Yujel (Turkiya)  
Qosimjon Sodiqov  
Zulxumor Xolmanova  
Mustafa O'ner (Turkiya)  
Nurboy Jabborov  
G'aybulla Boboyorov  
Kimura Satoru (Yaponiya)  
Imran Ay (Turkiya)  
Aftondil Erkinov  
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)  
Rashid Zohidov  
Otabek Jo'raboyev  
Bulent Bayram (Turkiya)  
Qo'ldosh Pardayev  
Nodirbek Jo'raqo'ziyev  
Oysara Madaliyeva  
Hilola Nazirova

|                               |  |
|-------------------------------|--|
| <b>EDITOR IN CHIEF</b>        |  |
| Shuhrat Sirojiddinov          |  |
| <b>DEPUTY EDITOR IN CHIEF</b> |  |
| Karomat Mullakhojaeva         |  |
| <b>EXECUTIVE SECRETARY</b>    |  |
| Ozoda Tojibaeva               |  |
| <b>EDITORIAL BOARD</b>        |  |
| Karl Rechl (Germany)          |  |
| Isa Habibbeyli (Azerbaijan)   |  |
| Seyhan Tanju (Turkey)         |  |
| Almaz Ulvi (Azerbaijan)       |  |
| Benedek Peri (Hungary)        |  |
| Vahit Turk (Turkey)           |  |
| Teymur Kerimli (Azerbaijan)   |  |
| Eunkyung Oh (Korea)           |  |
| Nazif Shahrani (USA)          |  |
| Bakijan Tukhliev              |  |
| Mukhammadjan Imomnazarov      |  |
| Bilol Yujel (Turkey)          |  |
| Kasimjan Sadikov              |  |
| Zulkhumor Kholmanova          |  |
| Mustafa O'ner (Turkey)        |  |
| Nurboy Jabborov               |  |
| Gaybullah Babayarov           |  |
| Kimura Satoru (Japan)         |  |
| Imran Ay (Turkey)             |  |
| Aftandil Erkinov              |  |
| Nadir Mamadli (Azerbaijan)    |  |
| Rashid Zahidov                |  |
| Atabek Juraboev               |  |
| Bulent Bayram (Turkey )       |  |
| Kuldosh Pardaev               |  |
| Nodirbek Jurakuziev           |  |
| Oysara Madalieva              |  |
| Hilola Nazirova               |  |

|   |    |
|---|----|
| <b>CONTENTS</b>   |    |
| <b>TEXTOLOGY. SOURCE STUDIES</b>  |    |
| <b>Aftondil Erkinov</b>   |    |
| Navoi's manuscript of the Metropolitan Museum of Art and the question of its composition (905/1499-1500 years, calligrapher - Sultanali Mashhadi) | 4  |
| <b>Kemal Yavuz Ataman</b>   |    |
| Baburshah and Globalized India  | 21 |
| <b>LITERATURE</b>   |    |
| <b>Ilyos Ismoilov</b>   |    |
| The first religious-historical sources of Iskander theme  | 35 |
| <b>Ulkər Bakhshieva</b>   |    |
| Artistic and aesthetic features of Nizami Ganjavi's poem "Iskandername"   | 53 |
| <b>Ozoda Tojiboeva</b>  |    |
| "Tarjebandi Khomisa" as a product of following Alisher Navoi  | 66 |
| <b>LINGUISTICS</b>  |    |
| <b>Samikhon Ashirboev</b>   |    |
| Syntax of simple sentences in compound sentence transformation in Alisher Navoi's prose works   | 79 |
| <b>Farhad Rahimi</b>  |    |
| The Evaluation of Nezrali's Chagatai Turkish Dictionary   | 92 |

ADABIYOTSHUNOSLIK  
LITERATURE**Iskandar mavzusining ilk diniy-tarixiy  
manbalari**Ilyos Ismoilov<sup>1</sup>**Abstrakt**

Iskandar mavzusining genezisi uzoq o'tmish bilan aloqador bo'lib, Alisher Navoiy davriga (XV asr) nisbatan olganda ham 20 asrlik tarixga ega. Mavzuning asosini makedoniyalik mashhur hukmdor Aleksandrning (milloddan avvalgi 356 – 323-yillar) hayoti va faoliyati tashkil etadi. Aksar syujet liniyalari, qahramonlar, motivlar, epizodlar va talqinlar mazkur o'zak bilan bevosita yoki bilvosita bog'lanadi. Ammo bir guruh mutaxassislar, masala tarixini o'rgangan tadqiqotchilar mavzuning genezisi Aleksandr dunyoga kelishidan ham oldinroq deb hisoblashadi. Ularning farazicha, Tavrot (Tanax)ning uchinchi qismi – “Muqaddas yozuvlar” (Ktuvim) tarkibidagi “Daniil” (Doniyor) payg'ambar kitobida keltirilgan bir vahiy (tush) Aleksandr haqidagi ilk bashorat bo'lib, unda Aleksandrning kelajakda ulkan imperiyaga asos solishi xabar qilinadi.

Ushbu maqolada mavzuning Tavrotdagi asoslari deb qaraluvchi o'rinlari batafsil o'rganilgan, shuningdek, Tavrotning nokanonik kitoblardan “Makkabiylarning birinchi kitobi” (miloddan avvalgi II asr)da qayd etilgan Aleksandrning tarixiga oid ma'lumotlar tahlil etilgan. Mazkur ikki manbada uchrovchi ma'lumotlarning keyinchalik Sharqdagi manbalar, xamsanavislik an'anasi, xususan, Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi talqinlar bilan qanchalik muvofiqligi yoxud transformatsiya jarayonida qanday o'zgartirishlarga uchrash sabablari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** *Aleksandr, Iskandar mavzusi, Tavrot, genesis, transformatsiya, Sharq, retsepsiya, badiiy talqin.*

**Kirish**

Jangnoma yoki shohnoma dunyo adabiyotining abadiy mavzulari sirasiga kiradi. Uning moyasi mashhur hukmdor, sarkarda yoki

---

<sup>1</sup>*Ismoilov Ilyos Abduqayumovich* – filologiya fanlari doktori (DSc), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** ismoilov@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0002-8077-7914

**Iqtibos uchun:** Ismoilov, I. A. 2023. “Iskandar mavzusining ilk diniy-tarixiy manbalari”. *Oltin bitiglar* 1: 35–52.

pahlavonlar hayoti, faoliyati bo'lib, jahon adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan, adabiyot tarixida an'ana yoki turkum asarlarni yuzaga keltirgan bunday qahramonlar u qadar ko'p emas. Tarix sahifalarida nomi abadiy saqlanib qolgan va butun dunyoda adabiy shon-sharaf qozongan ana shunday sanoqli qahramonlardan biri – Iskandar (Sharqda Iskandar yoki Iskandar Zuyqlarnayn, G'arbda esa Alexander The Great deb ataluvchi shaxs) bo'lib, Sharq va G'arb adabiyotiga birdek ta'sir ko'rsatgan bunday siymoni qayta uchratish mushkul. Aleksandr romanlarining 24 tildagi 80 dan ortiq versiyalari mavjudligining o'ziyoq mavzuning jahonda naqadar keng tarqalganini tasavvur qilishga imkon beradi [The Book of the gests... 1962, 1]. Bu qatorda Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonining borligi esa mavzu o'zbek adabiyotiga ham bevosita daxldor ekanligini tasdiqlab turadi.

Iskandar mavzusi<sup>1</sup> sinkretik tabiatga ega bo'lib, uning ildizlari to'rt yo'nalishdagi sarchashmalar: Iskandarning jahon-girlligi tarixiy manbalarga, payg'ambar yoki valiyliги diniy manbalarga, donishmandligi falsafa yoxud hikmat adabiyotiga hamda mavzuning ayrim motiv, epizodlari folklorga borib tutashadi. Ushbu mavzuni Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostoni misolida tadqiq etishning murakkabliklaridan biri – mazkur to'rt xil xarakterdagi ma'lumotlarning qorishiq holda kelishidir. Ularni to'g'ri tushunish va talqin etish, o'zaro farqlash uchun ularning genezisini bilish, tarixiy evolyutsiyasini kuzatish zarur. Bunda mavzuga aloqador faktlarni bilishning o'zi kamlik qiladi, shu bois tarixiy, diniy, falsafiy va folklor sujetlari, obrazlari, motivlarining badiiy adabiyotga transformatsiyasi hamda badiiy adabiyotdagi evolyutsiyasini kuzatish, muhim o'zgarishlar, farqli va o'xshash, an'anaviy va yangi jihatlarini tahlil etish, ular asosida mualliflarga baho berish kerak.

Mazkur maqsad taqozosi bilan Iskandar mavzusiga asos bo'lgan manbalarni xronologik prinsip asosida tadqiq etish ko'zlangan maqsadga olib boradi, chunki muayyan mavzu genezisi va uning badiiy adabiyotga transformatsiyasini tadqiq etish uchun xronologiya juda muhim. Ushbu mavzu tarixiga oid ilk qaydlar islomgacha bo'lgan diniy ta'limotlar (yahudiylık va xristianlik) bilan bog'liq bo'lib, ularda mavzuning ikki muhim asosi: Aleksandr va Gog-Magoglarga oid qaydlar uchraydi. Shu bois ishni mavzuning diniy asoslarining birinchisini o'rganishdan boshlaymiz. Masalaga bunday

---

<sup>1</sup>Biz ish davomida "Iskandar mavzusi" deganda Iskandar tarixi, qissalari va ularning eng muhim jihatlarini nazarda tutamiz.

yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, keyingi davrlarda yaratilgan mavzuga aloqador tarixiy manbalar u yoki bu dinga e'tiqod qiluvchilar yoki ularning ta'siri ostidagi odamlar tomonidan yozilgan bo'lib, haqiqiy tarix aksar holda muallifning e'tiqodi, mafkurasi nuqtayi nazaridan o'zgarishlarga uchragan. Bunday o'zgarishlarni ilg'ash uchun ham asar yaratilgan tarixiy davr, muallif e'tiqodi va mafkurasini bilish zarur, ana shunda turli manbalar orasidagi qarama-qarshi jihatlar, keskin farqlarni izohlash imkoni yuzaga keladi.

### **Iskandar (Alexander) haqidagi ma'lumotlar xronologiyasi**

Xronologik nuqtayi nazardan Iskandar (Alexander) haqidagi ma'lumotlar uchrovchi ilk diniy manba – Bibliya deb qaraladi [The Holy Bible 2000, 942 – 946]. Tavrot (Tanax) uch qism – “Musoning besh kitobi” (Tavrot), “Payg'ambarlar” (Neviim) va “Muqaddas yozuvlar” (Ktuvim)dan iborat bo'lib, Iskandar haqidagi ilk xabarlar uchinchi qism tarkibidagi “Daniil” (Doniyor) payg'ambar kitobida uchraydi.

Bobil imperiyasida surgunda yashagan, hukmdor Navuxodnasrning tushlarini ta'bir qilib saroyda e'tibor qozongan Daniil Aleksandr yurishlaridan ancha oldin yashab o'tgan bo'lsa-da, ular bir-biri bilan uchrashgan deb ishoniladi. “Daniil” payg'ambar kitobi Tavrotdagi apokaliptik kitoblarning dastlabkisi bo'lib, uning bosh g'oyasi – kelajakda insoniyat xalaskori kelishiga, Allohning hukmronligini o'rnatishiga, shundan so'ng yer yuzida butparastlar qolmasligiga ishontirish. Daniilning fikriga ko'ra, Allohning hukmdorligi to'rtta qirollik qulaganidan so'ng o'rnatiladi.

Ta'kidlash kerakki, aksar bibliyashunoslar “Daniil” kitobi Daniil payg'ambar yashagan darvdan ancha keyin yozilgan deb qarashadi. Daniil eramizdan oldingi VII – VI asrlarda yashagan, lekin filologlar kitobning tili, undagi grammatik shakllar IV asrdan keyingi davr tiliga juda yaqin ekanini tasdiqlashadi. Ko'p tadqiqotchilar bu kitobning yozilishini eramizdan avvalgi II asrda yuz bergan Makkabiylar qo'zg'aloni bilan ham bog'lashadi.

“Daniil” kitobiga xos xususiyatlaridan biri shundaki, undagi voqealar kelajak haqida sirli uslubda hikoya qilinadi, bayonda allegorik xarakter va ramziylik bo'rtib turadi. Mazkur jihatlar Aleksandr haqidagi xabarlarni tushunishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

“Daniil” kitobi umumiy 12 bo'lim (sura)dan iborat bo'lib, u ikki qismga ajratiladi: 1) 1 – 6 – tarixiy qism; 2) 7 – 12 – vahiylar va

uning ta'biri kitobi. "Daniil" kitobining 6- va 8-bo'limlari biz tadqiq etayotgan mavzuga bevosita aloqador. Xususan, Daniil 5-bo'lim so'ngida Bobil hukmdori Belshazar tushini tabirlar ekan, undan so'ng taxtga 62 yoshli Doro o'tirishini bashorat qiladi. 6-bo'limda payg'ambar Daniil va qirol Doroning munosabatlari haqida bayon qilinadi. Bu qismda Doro bilan bog'liq qaydlar uchrasa-da, Aleksandrqa aloqador ma'lumotlar kelmagan.

7-bo'lim ham bilvosita Iskandar mavzusi va undagi muhim motivlardan biri "shox" (muguz) bilan aloqador bo'lib, Sharq adabiyoti, ayniqsa, folkloridagi Iskandar Zulqarnayn haqidagi hikoyat, ertak va ayrim epizodlarda Iskandarning shoxi borligi, bu uning boshqa insonlardan mumtozligi va uni doim sir tutishga intilishi haqida hikoya qilinadi. Albatta, qadimda podshohlarga xudolar, osmonlarning homiylik qilishi, sirli kuch-qudrat sohibi sifatida qarash natijasida ularda boshqalarda uchramaydigan, noodatiy belgilar mavjud deb ishonilgan. Boshqa tomondan, xalq orasida bunday qarashlar o'z-o'zidan paydo bo'lmay, ularning muayyan asoslari ham mavjud bo'lgan. Masalan, "Daniil" kitobining 7-bo'lim (suras)ida hukmdorlik, podshoh va shox motivlari o'zaro bog'liq holda tasavvur qilinganini ko'rish mumkin. Xususan, Daniil to'rt mahluq haqidagi vahiy(tushi)ni shunday hikoya qiladi:

2. "Men tushimda bir vahiy ko'rdim. Osmonning to'rt tomonidan esayotgan qattiq shamol ulkan bir dengizni to'lqinlantirayotgan edi. 3. O'sha dengizdan bir-biriga o'xshamaydigan to'rtta bahaybat mahluq\* chiqdi... 7. Bundan keyin tundagi vahiyda men qo'rqinchli, dahshatli va benihoya kuchli bo'lgan to'rtinchi mahluqni ko'rdim. U o'z qurbonlarini temir tishlari bilan g'ajib, parchalab tashlardi. Qoldiqlarini esa oyoqlari bilan bosib ezardi. Uning o'nta shoxi bo'lgani uchun, u oldingi mahluqlardan ajralib turar edi. 8. Men mahluqning shoxlarini tomosha qilib turganimda, ularning orasidan o'sib chiqayotgan yana bir shoxchani\* ko'rdim. Unga joy berish uchun oldingi o'nta shoxdan uchtasi tag-tugi bilan uzilib tushdi. Bu yangi o'sib chiqqan shoxning inson ko'zlariga o'xshagan ko'zlari va takabburona gapiradigan og'zi bor edi" [The Holy Bible 2000, 942 – 944]<sup>1</sup>.

Doniyor ko'rgan tushning ma'nosi shunday tushuntiriladi:

23. Suhbatdoshim menga shunday dedi: "To'rtinchi mahluq bu yer yuzida hukmronlik qiladigan to'rtinchi shohlikning timsolidir. Bu shohlik boshqa shohliklardan ajralib turadi. U butun dun-

---

<sup>1</sup>Bibliyadan olingan ushbu va bundan keyingi iqtiboslar tarjimasi "Bibliyani tarjima qilish instituti" saytidan oldindi: URL: <http://ibtrussia.org/en/text?m=UZ-VL&l=Dan.7.1.1&g=0> (02.06.2022). Yana qarang: <http://bibliya-online.ru/kniga-proroka-daniila-glava-7/> (02.06.2022)



yoni g'ajib, ezib parcha-parcha qiladi. 24 Mahluqning o'nta shoxi — shohlikni boshqaradigan o'nta hukmdordir. Keyinchalik taxtga yangi bir hukmdor o'tiradi. Bu hukmdor oldingi o'nta hukmdordan ajralib turadi va uchta hukmdorni taxtdan tushiradi..." [The Holy Bible 2000, 942 – 944].

*Birinchidan*, ushbu tush Aleksandr haqida xabar kelgan bo'limdan oldingi bo'limda kelgan.

*Ikkinchidan*, 7-bo'limning 6-qism (oyat)i ham Aleksandr haqidagi bashorat deb qaraladi. Unda Daniil tushida to'rt boshli, qanotli bars ko'rgani va vaqti kelib hukmdorlikni unga berilishini bashorat qiladi.

*Uchinchidan*, tushda ko'rilgan to'rtinchi mahluq yer yuzida hukmronlik qiluvchi to'rtinchi shohlikning timsoli ekani, u mahluqning o'nta shoxi borligi, bu o'n shoxni bir yangi shoxning qo'porib chiqishi esa keyinchalik taxtga yangi bir hukmdorning chiqishiga ishora ekanligi aytilmoqda.

Umuman olganda, bu yerda *shohlik* va *shox* masalasi o'zaro bog'liq holda tasvirlangan. Yana bir qiziq jihat shuki, navbatdagi bo'limda Doro va Aleksandr haqida majoziy hikoya qilinar ekan, ular shoxli hayvonlar – qo'chqor (Doro) va taka (Aleksandr) timsolida tasvirlanadi, *shox* motivi yana bu ikki hukmdor sarguzashti bilan bog'liq holda tilga olinadi.

8-bo'limda Daniilning qo'chqor va echki haqidagi vahiy-si shunday bayon qilinadi: <sup>1</sup> "Shoh Belshazar hukmronligining uchinchi yilida\* menga yana bir vahiy keldi. <sup>2</sup> Bu vahiyda men Elam viloyatidagi Shushan qal'asida\*, Uloy daryosining bo'yida turgan ekanman. <sup>3</sup> Men daryo bo'yida bir qo'chqor turganini ko'rdim. Uning ikkita uzun-uzun shoxlari bor ekan\*. Ikkinchi bo'lib chiqqan shox birinchisiga qaraganda uzunroq ekan\*. <sup>4</sup> Qo'chqor o'zini g'arb, shimol va janubga urib, yo'lida duch kelgan hamma narsani suzar edi. Hech qanday hayvon unga bas kela olmas, uning qurbonlarini qutqara olmas edi. Qo'chqor xohlagan ishini qilar, kuchi tobora oshib borar edi. <sup>5</sup> Buni tomosha qilib turganimda, g'arb tomondan bir taka ko'rindi. Yelday uchib kelayotgan bu takaning tuyoqlari go'yo yerga tegmayotganday tuyular edi. Uning ikki ko'zi orasida ulkan bir shox bor edi\*. <sup>6</sup> U quturganicha qo'chqor tomon yugurdi-da, <sup>7</sup> qahr-g'azab bilan unga tashlanib, suzdi. Takaning zarbasi zo'rligidan, qo'chqorning ikkala shoxi sinib tushdi. Qo'chqor takaga bas kela olmadi. Taka uni yerga yiqitib toptadi, hech kim qo'chqorni undan qutqara olmas edi. <sup>8</sup> Taka nihoyatda kuchayib ketdi, ammo kuch-qudrat cho'qqisida uning ulkan shoxi sinib tushdi. Sinib tushgan shoxning

o'rniga dunyoning to'rt tomoniga qayrilgan to'rtta katta shox o'sib chiqdi\*. ... 15 Men ko'rgan vahiyni mag'zini chaqmoqchi bo'lib, boshimni qotirib turganimda, birdaniga oldimda odam qiyofasidagi allakim paydo bo'ldi. ... 18 U gapirayotganda men hushimdan ketib, yuz tuban yerda cho'zilib yotgan edim. Ammo u qo'lini tekkizib, meni turg'izib qo'ydi-da, <sup>19</sup> shunday dedi: eshit, men senga oxirzamon paytida sodir bo'ladigan narsalarni ayon qilaman, o'sha davrda Xudo O'z g'azabini yer yuziga sochishni belgilagandir. <sup>20</sup> Sen ko'rgan ikki shoxli qo'chqor – bu Midiya va Fors shohliklaridir. <sup>21</sup> Taka esa Yunon shohligidir. Ikkala ko'zining orasidagi ulkan shox – bu Yunon shohligining taxtida o'tiradigan birinchi hukmdordir. <sup>22</sup> Sinib tushgan shoxning o'rniga chiqqan to'rtta shox — Yunon shohligi to'rt qismga bo'linishini bildiradi. Taxtga o'tirgan to'rtala hukmdor oldingi hukmdorga qaraganda zaifroq bo'ladi” [The Holy Bible 2000, 945 – 946].

Qayd etganimizdek, “Doniyor” payg'ambar kitobi ramziy-allegorik tasvir uslubi bilan ajralib turadi. Undagi “to'rt boshli bars”, “to'rt shoxli qo'chqor” allegorik tarzda Aleksandr va uning imperiyasi haqidagi bashoratlar deb qaraladi. Ushbu oyatlardagi asosiy tezis hukmdorlik bo'lib, barcha o'rinda uning “shox” (muguz, por) timsoli vositasida tasvirlangani e'tiborli. Tushning ta'birida qo'chqorning ikki shoxi Midiya va Fors shohligi, ya'ni Doro saltanatining allegorik ifodasi ekani, takaning yakka shoxi (единорог) Yunon saltanati, ya'ni Aleksandr Makedonskiy hokimiyatining allegorik ifodasi ekani ochiq aytilmoqda. Echkining peshonasidan o'sib chiqqan ulkan shoxning kuch-qudrat cho'qqisida, tezda sinib, o'rnidan dunyoning to'rt tomoniga qaragan shoxning o'sib chiqishi – Aleksandr saltanatining shiddat bilan kuchayishi, lekin uzoqqa cho'zilmasligi, uning saltanati o'zidan so'ng to'rtga bo'linib ketishiga ishora ekani bayon qilinmoqda. Tarixdan ma'lumki, Aleksandrning Yunonistondagi imperiyasi o'zidan so'ng sarkardalari Ptolemey, Kassandr, Lisimax va Selevklar tomonidan taqsimlab olingan. Bu o'rinda yana bir jihatni yodda tutish kerak, ya'ni “tarixiy dalillarga ko'ra, Fors shohi o'z qo'shinini boshqara turib, o'z boshini qo'chqorning boshi (ko'rinishidagi dubulg'a – bosh kiyim) bilan bezatgan, shundan kelib chiqilsa, qo'chqor tasviri forsiy simvolizm bilan bog'liq bo'lishi kerak” [Толкование Далласской семинарии, 27/8].

Mana shu kabi tasvir va talqinlar asosida keyinchalik Sharq adabiyotiga Iskandarning shoxi bor, ba'zan Iskandarning ikkita shoxi bor degan tasavvurlar ko'chib o'tib keng tarqalgan, yangidan-yangi yangilish tasavvurlar urchib boravergan. Bu motiv sharq xalqlari orasida, ayniqsa, Qur'on nozil bo'lganidan so'ng keng yoyildi,

bunga Qur'ondagi "Zulqarnayn" ismi sabab bo'ldi. Islom ta'limoti tushgach, Qur'onda zikri kelgan Zulqarnayn so'zini "ikki shoxli" deb, uning o'zini esa "Daniil" kitobida "bir shoxli" taka timsolida bashorat qilingan deb taxmin qilinuvchi Aleksandr bilan bir shaxs deb tushunish avj olgan, buning natijasi o'laroq sharq xalqlarida, xususan, adabiyotida Aleksandrni "Iskandar Zulqarnayn" deb nomlash, Iskandar yoki Zulqarnaynning (ikki) shoxi borligi, u haqda ilohiy kitoblarda vahiyalar kelishi uning ilohiy kuch-qudrat sohibi ekaniga ishora qilishi to'g'risida ertaklar, afsona-yu rivoyatlar yuzaga kelgan. Holbuki, Aleksandr va Zulqarnaynni bir shaxs deb qarash asossiz edi, xususan, Qur'onda Zulqarnayn so'zi "dunyoning ikki cheti, G'arb-u Sharq" ma'nosida kelgan. Oyatlarda shox (muguz) bilan bog'liq qayd yoki biror ishora yo'q. Qisqasi, shox motivi Iskandar mavzusining muhim tarkibiy qismi sifatida sharq xalqlari folklori va yozma adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi, hatto, xamsanavislik an'anasida ham unga oid qaydlar uchraydi.

Shu tariqa, "Daniil" payg'ambar kitobining biz o'rganayotgan mavzuga aloqador muhim jihatlari sifatida *masalaning hukmdorlik bilan bog'liq ekani, hukmdorlarning Alloh tomonidan tayinlanishi, shox motivi, allegorik-ramziy tasvir* kabilarni ko'rsatish mumkin. Keyingi davrlarda sharq xalqlari tomonidan yaratilgan Iskandar qissalarida ham voqealarning ramziy-majoziy tasviri alohida ajralib turadi, ya'ni iskandarnomalarda ramziy-majoziy mazmunga ega bo'lgan epizodlarning ko'pligi, bizningcha, bilvosita yuqoridagi Doro va Aleksandr munosabatlarining ramziy-allegorik tasviri bilan ham bog'lanadi.

Daniil bashoratlardagi muhim uch nuqtani alohida e'tiborga olish lozim:

1. Aleksandrning Doroni yengishi.
2. Doroning hiylasiz, xiyonatsiz Aleksandr tomonidan taslim etilishi.
3. Aleksandrning Doroni yengishi Allohning xohishi ekani.

Mazkur uch jihatning barchasi o'zak motivlar sifatida Sharqda yaratilgan Iskandar haqidagi asosiy dostonlarda saqlanib qolgan, faqat ikkinchi motiv retsepsiya jarayonida katta o'zgarishga uchragan. Ya'ni Aleksandrning Doroni yenggani va Aleksandrning g'alabasi Allohning amri ekani ijodkorlar tomonidan qabul qilingan, lekin Doroning yengilish jarayoni, uning sabablari milliy mafkura va mafaat nuqtayi nazaridan o'zgartirilgan. Sharqdagi iskandarnomalarda Doroning yengilishi masalasi "xiyonat" motivi orqali izohlanadi. O'z navbatida, xiyonatning yuz berishi ham ikki yo'sinda:

xiyonatkorlarning shaxsiy tashabbusi va Iskandarning fitnasi tarzida talqin etiladi. Bu o'rinda Doroning yengilishi masalasiga xiyonat motivining qo'shilishi qiziq. Bu savolning javobi u qadar qiyin emas, bunda milliy mafkura va manfaat, mag'lub tomonning mag'lubiyatni tan olmaslikka urinishi, o'z obro'sini saqlashga intilishi ochiq ko'rinib turibdi. Ushbu masalaga "xiyonat" motivining aynan sharqlik (fors)lar tomonidan qo'shilgani esa bu fikrni yanada quvvatlaydi. Masalan, ko'plab fors tarixchilari asarlari, shuningdek, Firdavsiy "Shohnoma"sida ham xiyonat motiviga katta ahamiyat berilgan va Doroning yengilishi o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablar bilan izohlangan. Bu orqali "agar xiyonat bo'lmaganida, Aleksandr Doroni yenga olmasdi" degan qarashni ilgari surishadi va mag'lubiyatni xaspo'shlashga harakat qilishadi. Keyinchalik bu motiv Sharq xalqlari tarixi va adabiyotida keng tarqalib, xamsanavislik an'anasini, xususan, Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida ham badiiy talqin etildi. Biroq Navoiyning mazkur voqeaga munosabati haqiqatga muvofiq, ya'ni Navoiy garchi Sharq tarixchilari ta'sirida xiyonat yuz berganini qayd etsa-da, Iskandarning bu voqealarga ishonmagani va bunday ishlarni qoralaganini yozadi.

Bibliyaning kanonik qismlaridan bo'lgan Daniil payg'ambar kitobida uchrovchi xabarlar tahlili mana shundan iborat, lekin bu manbadagi Aleksandrga oid xabarlar shu bilan yakunlanmaydi. Eski Ahdning nokononik (ya'ni qonunlashtirilmagan) kitoblari ham mavjud bo'lib, ular nisbatan kechroq, eramizdan avvalgi IV – I asrlarda ibroniy tilida yozilgan deb qaraladi, lekin bizga qadar yunon tilida yetib kelgan. Nokononik kitoblar ilohiy vahiyalar sirasiga kiritilmaydi, lekin yoshlikda o'qish uchun foydali deb tavsiya etiladi. Bibliyadagi o'n bir nokononik kitobining dastlabkisi bo'lgan "Makkabiylarning birinchi kitobi" ham biz o'rganayotgan mavzuga aloqadorligi bilan ahamiyatli. Yuqorida ta'kidlanganidek, tadqiqotchilar "Daniil" kitobining yozilishini eramizdan avvalgi II asrda yuz bergan Makkabiylar qo'zg'aloni<sup>1</sup> bilan ham bog'lashadi.

"Makkabiylarning birinchi kitobi"da Aleksandr to'g'risida quyidagi qaydlar uchraydi:

**a) 1-bo'lim(sura)ning 1-9-qism(oyat)larida:**

1 Kittim yurtidan chiqqan Makedoniyalik Filippning o'g'li Aleksandr Fors va Midiya shohi Doro ustidan g'alaba qozonib, birin-

---

<sup>1</sup>Makkabiylar – dastlab miloddan avvalgi 166 – 160-yillarda suriyalik yunonlar zulmiga qarshi qo'zg'olonga rahbarlik qilgan Xasmoniyalar sulolasidan bo'lgan Iudo Makkabiyning taxallusi. Keyinchalik bu loarivning oilasidan bo'lgan yahudiy ruhoniysi Mattafiyning boshqa o'g'illariga ham qo'llanila boshlandi; keyin Antiox Epifanni ta'qib qilishda ishtirok etgan barcha himoyachilarga nisbatan qo'llanilgan.

chi o'rinda Ellada (Qadimgi Yunon) ustidan hukmronlik o'rnatgani-dan so'ng,

2 u ko'plab urushlarni amalga oshirib, ko'plab mustahkam joylarni egallab oldi va yer yuzidagi shohlarni o'ldirdi.

3 Va u Yerning chekkalariga qadar borib, ko'plab xalqlardan o'lja oldi; yer (yuzi) uning oldida jim bo'ldi, u va uning yuragi yuk-saldi.

4 U juda kuchli qo'shin to'plab, mintaqalar, millatlar va hukmdorlar ustidan hukmronlik qildi hamda ular uning o'lpon to'lovchilariga aylanishdi.

5 U to'shakda hasta yotib, o'layotganini his qilganidan so'ng,

6 yoshligidan o'zi bilan birga tarbiya topgan xizmatkorlari-ning aslzodalarini chaqirdi va tirikligida shohligini ularga taqsimlab berdi.

7 Aleksandr o'n ikki yil hukmronlik qildi va vafot etdi.

8 Va xizmatkorlarining har biri o'z o'rnida shohlik qildi.

9 Va uning vafotidan so'ng hammasi toj kiydi, ulardan keyin ko'p yillar davomida o'g'illari ham; va yer yuzida yovuzlikni ko'pay-tirdilar [Первая книга Маккавейская, глава 6].

#### **b) 6-bo'lim(sura)ning 1-2-qism(oyat)larida:**

1 Shoh Antiox yuqori hududlardan o'ta turib, Forsda boyligi, kumush va oltinlari bilan mashhur bo'lgan Elimais shahri borligini eshitdi.

2 u yerda juda boy ibodatxona bo'lib, ichida yunonlar ustidan dastlab hukmronlik qilgan Makedoniya qiroli Filippning o'g'li Aleksandr qoldirgan oltin qoplamalar, zirh va qurollar mavjud edi (*Tarjima bizniki – I.I.*) [Первая книга Маккавейская, глава 6].

“Makkabiylarning birinchi kitobi”da kelgan Aleksandr haqidagi ma'lumotlar mana shulardan iborat bo'lib, bunda muhim faktlar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

– Aleksandr Makedoniyalik Filippning o'g'li;

– Aleksandr Midiya-Fors qiroli Droni yenggan, Yunoniston-da hukmron bo'lgan;

– kuchli qo'shin bilan ko'plab hududlarni egallagan, shohlarni bo'ysundirgan;

– Yerning chekkalariga qadar borib, yerli xalqlardan o'lpon olgan;

– Aleksandr xastalik tufayli (sharobga berilgani uchun bezgakka chalinib [Толкование Далласской семинарии, 27/8]) vafot etgan va o'limini oldindan sezib, saltanatini sarkardalariga bo'lib bergan;

- Aleksandr 12 yil hukmronlik qilgan;
- Forsdagi Elimias shahridagi ibodatxonada Aleksandrdan qolgan oltin-kumush buyumlar va qurollar mavjud bo'lgan.

Ta'kidlash kerakki, makkabiylar voqeasi xronologik nuqtayi nazardan Aleksandr yashagan davrdan keyin, miloddan avvalgi II asrda sodir bo'lgan. Bu kitobga Aleksandr tarixiga oid birlamchi manbalardagi ma'lumotlar ko'chib o'tgan bo'lishi, tabiiy. Lekin Aleksandrning haqiqiy tarixiga oid, bizgacha yetib kelgan manbalarining miloddan avvalgi I asr va milodiy I – II asrlarga aloqador ekani inobatga olinsa, "Makkabiylarning birinchi kitobi"dagi ma'lumotlar tarix nuqtayi nazaridan qimmatli ekani ma'lum bo'ladi. Aleksandr haqidagi mazkur ma'lumotlar tarixiy xarakterga ega bo'lib, ularda Iskandar mavzusining o'zagini belgilovchi nuqtalar mavjud. Bu yerdagi birinchi muhim masala Aleksandr Filippning haqiqiy o'g'li ekanligidir. Bu haqiqat keyinchalik G'arbdagi tarixiy va badiiy asarlarda o'zgarishsiz saqlangan bo'lib, bugungi kunga qadar bu borada deyarli bahslar yo'q.

### **Iskandarning nasabi masalasi**

Sharqda esa Iskandar (Aleksandr)ning nasabi masalasi o'ta bahsli va shubhali talqinlarga ega. Sharqdagi tarixiy asarlarda ham, badiiy asarlarda ham Iskandarning nasabiga doir bir necha xil qarashlar mavjud bo'lib, ularni yaxlitlab ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Iskandar asrandi farzand.
2. Iskandar Faylaqusning haqiqiy o'g'li.

Birinchi bo'lib "asrandi farzand" versiyasini keltirishimizga sabab shuki, Sharqda nisbatan "Iskandar Faylaqusning asrab olgan farzandi" degan qarash keng tarqalgan. Bizningcha, mazkur qarash ham Doroning yengilishi bilan bog'liq to'qimalarga asos bo'lgan psixologiya va qonuniyat asosida yuzaga kelgan. Mazkur talqin, avvalo, Sharq xalqlarida mavjud bo'lgan "shoxlar ilohiy inoyat sohibi, ular nazarkarda bo'ladi" degan qarash va shu qarashdan kelib chiquvchi davlat boshqaruvining sulolaviy shaklining hosi-lasi edi. Sharq xalqlaridan bo'lgan forslarning zodagon va ruhoniy toifasida ham faqat "ilohiy inoyat"dan bahramand bo'lgan kishilargina taxtga chiqa oladi degan qarash ustuvor edi. Garchi ushbu qarash mohiyatan to'g'ri bo'lsa-da, ularning bu qarashni o'zlari-ga moslab, fors taxtiga "ilohiy inoyat"ga sazovor o'z podshohlari-mizning avlodlari chiqadi deyishi noto'g'ri edi. Aleksandr forslar-dagi bu qarashning to'g'ri emasligini Doroni yengish orqali isbotlab



qo'ydi. Natijada, forsparast tarixchilar, ijodkorlar "ilohiy inoyat" haqidagi qarashlari to'g'riligini isbotlash uchun Aleksandrni fors podshohlari avlodidan, ya'ni o'zi jang qilgan Doro bilan aka-uka deb talqin eta boshlashdi. Go'yo Doroning otasi zamonida Aleksandrning otasi Filipp o'z qizini fors hukmdoriga tortiq qiladi, ma'lum muddatdan so'ng Filippning qizi o'z yurtiga qaytarib yuboriladi. Ammo bu payt-da u homilador edi va Aleksandr tug'iladi, lekin Filipp Aleksandr Doroning o'g'li deyishdan or qilib, uni o'z farzandi sifatida tanishtiradi. Shunday qilib, Aleksandrning nasabi fors podshohlari sulolasiga mansub qilinadi va o'zlarining yuqoridagi nazariyasi barhayotligini "isbotlashadi".

Fors tarixchilarining mazkur qarashi to'g'ri emasligini Beruniy, Saolibiy kabi tarixchilar, Nizomiy, Navoiy kabi ijodkorlar o'z davrida maxsus qayd etishgan va Iskandar Faylaqusning haqiqiy o'g'li degan qarashni ilgari surishgan. Forslarning bu uydirmasi keyinchalik yangi-yangi talqinlarga asos bo'lgan, masalan, keyingi davr tarixlarida Iskandar Doroning avlodidan bo'lgan degan dastlabki qarashdagi "Doro avlodi" qismi xiralashib, Iskandar bir topib olingan bola, oddiy asrandi farzand tipidagi qarashlar yuzaga kela boshlagan. Bu haqda Banokatiy, Nizomiy, Navoiy asarlarida qaydlar mavjud. Ya'ni bora-bora Iskandarning shohlar sulolasiga mansubligi ham unutilib, u yaxshi tarbiya topgan shaxs obrazida talqin etila boshlangan.

"Makkabiylarning birinchi kitobi"da ham Aleksandrning Midiya-Fors qiroli Doroni yengishida hech qanday hiyla haqida gap yo'q. Aleksandrning Yunonistonda hukmron bo'lgani, kuchli qo'shin bilan yurishlar orqali ko'plab hududlarni egallagani, shohlarni bo'ysundirgani kabi haqiqatlar Sharq adabiyotida saqlanib qolgan, boshqa tarixiy materiallar va badiiy illyustratsiya bilan bo'lsa ham batafsil va to'g'ri talqin topgan.

Aleksandrning Yerning chekkalariga qadar borib, u yerlarda yashovchi xalqlardan o'lponlar olishi haqidagi qaydlar ham diqqatga sazovor. Bizningcha, bu qaydlar zamirida Aleksandrning Hindistonga harbiy yurishlari yotadi, bu kabi xabarlar keyinchalik Sharq adabiyotida qayta ishlanib, Iskandar mavzusining muhim tarkibiy qismlariga aylangan va Iskandarning zulmatga safari, obi hayot izlab zulmatga kirishi, dunyoning eng chetidagi g'aroyib o'lkalarga safar qilishi, u yerda turli ajoyibotlarga duch kelishi kabi tasvirlar bilan hamohang.

Makkabiylar kitobidagi Aleksandrning xastalik tufayli (sharobga berilgani uchun bezgakka chalinib) vafot etgani va u o'limini

oldindan sezgani, shu bois saltanatini sarkardalariga bo'lib bergani haqidagi faktlar ham Sharq adabiyotida yaratilgan iskandarnomalar sujetining muhim tarkibiy qismiga aylangan.

Qayd etish kerakki, Aleksandrning o'limi Bibliyaga yozilgan sharhlarda, asosan, ichkilikka berilish natijasida kelib chiqqan bezgak tufayli deb izohlangan. Masalan, "Dallas seminarining sharhi"da ayni shu fakt qayd etilgan [Толкование Далласской семинарии, 27/8]. Davrlar o'tishi bilan Aleksandrning o'limi Sharq adabiyotida, xususan, xamsanavislikda turlicha talqinlarga uchragan, jumladan, Nizomiy tarixiy haqiqatga yaqin variantni keltirib, Iskandar bezgakka o'xshash kasallik bilan kasallangani, bu xastalik bilan anchayin kurashgani haqida yozsa, Xusrav va Navoiyda Iskandarning o'limi tabiiy jarayondek tasvirlanadi va ular Iskandarning vafotini ichkilik bilan bog'lashmaydi.

### **Aleksandrning davlatni taqsimlashi**

Aleksandrning xastalik chog'ida vafoti yaqinligini sezib, saltanatini sarkardalariga bo'lib berishi masalasiga kelsak, "Daniil" kitobida taka peshonasidagi yakka shox tezda sinib, takaning boshidan to'rtta shoxning o'sib chiqishi haqidagi xabarlar ramziy ma'noda Aleksandr hukmronligining ko'p davom etmasligi, imperiyasi to'rtga bo'linib ketishiga ishora ekani aytilgan edi. "Dallas seminarining sharhi"da bu bo'linish quyidagicha amalga oshgani ko'rsatiladi: sarkarda Ptolomeyga Misr va Kichik Osiyoning qo'shni hududlari, sarkarda Kassandrga Makedoniya va Gretsiya hududlari, Lisimaxga g'arbiy Vifiniya, Frigiya, Missiya va Kichik Osiyodagi Lidiya, srakarda Selevk uchun Iskandar imperiyasining qolgan qismlari, jumladan, Suriya, Isroil va Mesopatamiya berilgan [Толкование Далласской семинарии, 27/8].

"Aleksandrning davlatini o'z sarkardalariga bo'lib berishi" motivi ayrim o'zgarishlar bilan Sharqda yaratilgan iskandarnomalarda saqlanib qolgan. Masalan, bu motiv Navoiy dostoniga "Iskandar vafotidan avval o'z a'yonlarini chorlab, ularga davlat idorasi borasida ko'rsatmalar berishi" tarzida transformatsiya bo'lgan:

*Anga tegrukim aylabon suvni tay,  
Saodat bila qo'ydi sohilg'a pay.  
Su tashviridin jismi betob edi,  
Salomat mizojida noyob edi.  
Xayolig'a keldiki – ketmak kerak,  
Bu foniy jahon tarkin etmak kerak,  
Qilib elga irsol o'z dinini,*



*Tuzub mamlakat zabt-u oyinini.  
Burunroqki, bo'lg'ay ishi iztiror,  
Muluki tavoyifqa berdi qaror.  
Aningdekki, tuzgan kibi ul muluk,  
Qilib yeti yuz yilgacha bir suluk  
Ki, ul mulk alarg'a qolib necha pusht,  
Chiqormay alardin sipehri durusht.  
Chu ul fikrdin xotirin tindurub,  
Kecha-kunduz orom tutmay yurub [Navoiy 2006, 372].*

*Birinchidan*, Navoiy asarida “o’lim oldidan bo’lib berish” motivi saqlanib qolgan, faqat “to’rtga bo’lish” detali tushib qolgan, *ikkinchidan*, Navoiyga kelib epizodga yangi tafsilotlar qo’shilgan, jumladan, Iskandarning davlat boshqaruvi (zabt-u oyini)ni belgilab berishi, Iskandar ko’rsatmalariga amal qilishsa, mamlakat avlodlariga ham qolib, 700 yilgacha hukmronlik qilishlari va “muluki tavoyif”ning joriy etilishi. Bu yerdagi Iskandarning ko’rsatmalariga amal qilinsa, imperiyaning 700 yilgacha sarkardalar qo’lida saqlanib qolishi va “muluki tavoyif” masalasi mutlaqo yangi detallar bo’lib, ular Navoiy ijodiga Sharq tarixchilari asarlaridan ko’chib o’tgan.

“Muluki tavoyif” atamasi Sharq tarixnavisligida to’rt tabaqa Ajam shohlarining uchinchi tabaqasi bo’lgan ashkoniylarga nisbatan qo’llanadi. Bu nom Iskandarning mamlakat boshqaruvini alohida toifalarga ajratishi bilan bog’liq holda yuzaga kelgan [Dinovariy 1361 (h.), 65]. Uchinchi tabaqa bo’lgan muluki tavoyif borasida manbalarda yakdillik yo’q. Uning yuzaga kelish tarixi haqida Sharqda eng keng tarqalgan talqinga ko’ra, Iskandar Bayt ul-muqaddasga kelganda Aristotelga xat yozib, o’z saltanati, taxtining kelajagi, xavfsizligi borasida kengashadi. U yuzaga kelishi mumkin bo’lgan tahdiddan cho’chib, barcha o’zi bosib olgan hududlardagi fozillar, shahzodalar, obro’li kishilarni qatl etishni maqsad qiladi. Biroq Aristotel bu fikrning to’g’ri emasligi, bordi-yu shunday yo’l tutilsa, qo’l ostidagi xalqlarning adovati yanada kuchayishi, shu bois ularni bir-biriga bo’ysunmaydigan hokimliklarga bo’lib tashlash va shu orqali o’zaro mashg’ul qilib, vatan daxlsizligini ko’proq saqlab qolishni maslahat beradi. Iskandar Aristotelning maslahati bilan ish tutib, o’zi bosib olgan hududlarni bir-biriga qaram bo’lmagan hokimliklarga bo’lib tashlaydi va mana shu toifa tarixlarda “Muluki tavoyif” nomi bilan ataladi.

“Daniil” kitobida Aleksandrning necha yil hukmronlik qilishi aniq ko’rsatilgan emas, lekin uning “umri qisqa bo’lishi” va

u qurgan imperiya tezda sarkardalari tomonidan taqsimlab olinishi haqida bashorat mavjud edi. "Makkabiylarning birinchi kitobi"da bu masalaga aniqlik kiritilib, Aleksandr 12 yil hukmronlik qilgani haqidagi fakt keltirilgan, chunki bu kitob yozilayotgan davrda Aleksandr allaqachon yashab o'tgan, uning hayoti haqidagi tarixiy faktlar aniq edi.

Yuqoridagi har ikki ma'lumot - Aleksandrning qisqa umr ko'rishi va o'n ikki yillik hukmronlik detallari Sharq tarixi, adabiyotiga ham ko'chib o'tib, saqlanib qolgan. Jumladan, Navoiy o'z dostonida Iskandarning aynan 12 yil hukmronlik qilganini yozgan emas, balki Iskandar "oz vaqt" hukmronlik qilgan degan qarashga ko'proq urg'u bergan (XV). Biroq dostonidagi dengiz safari tasvirida Iskandarning safari bir o'rinda 12 yil, bir o'rinda 13 yil davom etgani aytiladi (LXXVII). Har ikki fakt dostonning bir bobi ichida kelgan bo'lib, Navoiy talqinida bu raqamlar Iskandarning dengizdagi safari muddatini anglatadi. Bizningcha, "12 yoki 13 yillik dengiz safari" haqidagi qaydlar, aslida, "Oynayi Iskandariy"da qayd etilgan Iskandarning 12 yillik dengiz safari bilan bog'liq bo'lishi kerak [Dehlaviy 1988, 237 – 274].

Navoiyning 12 yilni faqat dengiz safariga tegishli deb qabul qilishining boshqa asoslari ham bo'lgan, masalan, Navoiy Iskandarni bahr-u barni egallagan hukmdor sifatida bilgan va amalga oshirgan ishlarini haddan tashqari ko'p deb hisoblagan, shu bois buncha ishni 12-13 yilda amalga oshirishga ishona olmagan. Navoiy bu haqda "Tarixi muluki Ajam"da shunday yozadi: "Aksar tavorixda aning umrin o'tuz olti yil va salotinni o'n uch yil bitib-durlar. Ammo maholdurkim, o'n uch yilda ul qilg'an ishcha qilsa bo'lg'ay. Amir Xisrav Dehlaviy "Oynayi Iskandariy"da aning saltanati zamonin besh yuz yildin ortuq debdur. Ammo Hazrat shayx Nizomiy quddisa sirrihu "Iskandarnoma"da iki qari ma'hud debdur... Va faqir "Saddi Iskandariy"da ul iki buzurgvor qavlini soyir muarrixlar aqvolig'a tarjih qilib, nazm adosig'a qaror berib-men. Har taqdir bila Iskandar podshohe erdikim, andin burung'i va so'ngg'i salotin bu kungacha ul qilg'on ishni qilmadilar" [Navoiy 2000, 217]. Navoiy tarixiy asarlarga tayanib Iskandar 36 yil yashab, 13 yil hukmronlik qilgan degan fikrni qayd etadi<sup>1</sup>.

Tarixdan ma'lumki, Aleksandr miloddan avvalgi 356 – 323-yillarda yashab o'tgan, 20 yoshida taxtga chiqqan, qarib 13 yil

---

<sup>1</sup> Aleksandr Makedonskiy (356-yil 20 (21) iyul – 323-yil 10 iyun) ham juda qisqa – 33 yil umr ko'rgan va 20 yoshida taxtga chiqib, qisqa davr (13 yilda) juda katta ishlarni amalga oshiradi.

hukmronlik qilgan va Aleksandr 33 yil umr ko'rgan. Navoiy ham "Tarixi muluki Ajam"da ayni tarixiy haqiqatni deyarli to'g'ri qayd etgan. Bundan ma'lum bo'lmoqdaki, Navoiy Iskandarning yoshini tarixiy haqiqatga mos ravishda bilgan, hatto, uning qaysi davrda yashab o'tganini ham aniq tasavvur qilgan. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonining xotimasida shahzoda Abulfavoris Shohg'aribga nasihatlari mavjud. Unda Iskandarning yoshiga oid qiziq ma'lumot ham qayd etilgan:

*Sikandar topti chun ilm-u hunarni,  
Ne yanglig' oldi ko'rgil bahr-u barni...  
Iki ming yil o'tub yuz ming xiradmand,  
Bo'lub hikmatlari birla barumand* [Navoiy 1991, 463].

Ikkinchi baytdagi "2000 yil"ni aniq fakt sifatida qabul qilsak va Navoiy agar o'zi yashagan davrni nazarda tutib, yuqoridagi ma'lumotni bayon qilgan bo'lsa, u Iskandarni milloddan avvalgi IV – V asrlarda yashagan deb bilishi ma'lum bo'ladi. Aleksandr Makedonskiy millodan avvalgi 356 – 323-yillarda yashagan, bu IV asrga to'g'ri keladi. Navoiyning XV asrda yashagani inobatga olinsa, adibning Aleksandr to'ziga qadar o'tgan davr – ikki ming yilni to'g'ri ko'rsatgani oydinlashadi. Mazkur dalil Navoiy tasvirlagan Iskandarning tarixiy Aleksandr Makedonskiy bilan bevosita bog'liqligini va bunga Navoiyning ongli yondashganini ko'rsatadi. Shu bois Navoiyni Aleksandrning haqiqiy tarixini bilmagan deyish (Bertels) u qadar to'g'ri emas. Muhimi, Navoiy Sharqdagi Iskandarga oid asl manba va manshalarning tarixiy Aleksandrga olib borishini yaxshi bilgan, ammo bu fikrga tayanib Aleksandr va Iskandarni aynan bir shaxs sifatida tushunish ham o'zini to'la oqlamaydi.

### **Xulosa**

Sharqdagi Iskandar G'arbdagi Aleksandrning tegishli tarixiy-adabiy o'zgarishlarga – transformatsiyaga uchragan obrazi bo'lib, ularni o'zaro qiyoslash tarixiy Aleksandrning qanday qilib Iskandarga aylangani, bu jarayondagi shakliy va mazmuniy o'zgarishlar darajasi, ko'lami hamda maqsad va vazifalarini belgilash, turli xalqlar mafkuralari sintezini aniqlash nuqtayi nazaridangina to'g'ri.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, Iskandar mavzusining islomdan oldingi diniy manbalar, xususan, Tavrotdagi ildizlari, asoslari, mana shulardan iborat va ular sharqlik ijodkorlar, jumladan, Navoiy asarida yuqorida ko'rib

o'tganimiz kabi aks etgan. Bu boradagi dastlabki xulosa shuki, mavzuning ilk diniy manbalardagi asoslari Navoiy dostoniga deyarli o'zgarishsiz yetib kelgan va u diniy-tarixiy haqiqatga yaqin, balki uyg'un talqinlar yaratgan, qisqasi, mavzuning bobosyujeti Navoiy dostonida saqlanib qolgan.

Aytish mumkinki, Alisher Navoiy o'z ijodida Iskandar mavzusining imkon qadar tarixiy ildizlariga yaqin borishga intilgan. Iskandar obrazini turli rakurslarda talqin etar ekan hamisha yangilishlardan ehtiyot bo'lishga harakat qiladi va imkon qadar tasvirlayotgan obraziga oid badiiy talqinlarining tarixiy haqiqat bilan muvofiq bo'lishiga intilgan. Navoiyning bunday prinsipini qaharamonning yoshiga yondashuvi ham ko'rsatib turibdi. Yuqorida Navoiyning Nizomiy va Dehlaviy so'zlarini tarixchilar bergan ma'lumotlarga solishtirib, doston tasvirida haqiqatga yaqinini tanlaganini aytgani e'tiborga molik. Bu – Navoiy “Saddi Iskandariy”ni yozishda Nizomiy, Dehlaviylarning dostonlari bilan batafsil tanishish, Jomiy bilan shaxsan maslahatlashishidan tashqari ular bergan ma'lumotlarni tarixiy asarlar bilan solishtirib chiqqani, ularni haqiqatga yaqinlik darajasiga ko'ra saralab, ana shu asosda dostonga kiritganini tasdiqlaydi. Demak, Navoiy bu borada hech qanday masalaga ko'r-ko'rona yondashmagan, aksincha, zarur deb hisoblagan o'rinlarini o'zgartirgan, tarixiy-hayotiy hamda badiiy mantiq asosida yangilab borgan.

### Adabiyotlar

- Dinovariy, Ahmad ibni Dovud. 1361 (h.). *Axbor at-tivol*. Tarjo'mayi Sodiq Nishot. Tehron: Bunyodi farhangi Ironyo
- Dehlaviy, Amir Xusrav. 1988. *Oynayi Iskandariy. Matni intiqodiy*. Bo tas'hih-u muqaddimayi Jamol Mirsaidof. Masko'v: Sho'bayi adabiyoti Xovar.
- Навоий, Алишер. 1991. *Фарҳод ва Ширин*. МАТ. 20 томлик. Т. 8. Тошкент: Фан.
- Навоий, Алишер. 2000. *Тарихи мулуки Ажам*. МАТ. 20 томлик. Т.16. Тошкент: Фан.
- Navoiy, Alisher. 2006. *Saddi Iskandariy*. Toshkent: G'G'ulom nomidagi NMIU.
- Первая книга Маккавейская*. URL: <http://bibliya-online.ru/pervaya-kniga-makkaveyskaya-glava-6/> (25.04.2021)
- The Book of the gests of Alexander of Macedon. Sefer Toledot Alexandros ha-Makdoni. A mediaeval hebrew version of the Alexander romance by Immanuel ben Jacob Bonfils*. 1962. Edited and translated with introduction and notes by Israel J. Kazis, Ph.D. Massachusetts: The mediaeval academy of America.
- The Holy Bible*. 2000. New international version. Lutterworth: Gideon.

- Tojiboyeva, O. 2020. "Iskandarnoma"larning nasriy manbalari xususida". *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 4: 122-136.
- Толкование Далласской семинарии. URL: <https://bible.by/dallas/27/8/> (14.04.2021)

## **The first religious-historical sources of Iskander theme**

Ilyos Ismoilov<sup>1</sup>

### **Abstract**

The genesis of Iskandar theme is related to the distant past, and it has a history of twenty centuries even when compared to the period of Alisher Navai (15<sup>th</sup> century). The basis of the topic is the life and work of the famous Macedonian ruler Alexander (356-323 BC). Most plot lines, characters, motives, episodes and interpretations are directly or indirectly connected with this core. But a group of experts and researchers who have studied the history of the issue believe that the genesis of the topic was even before the birth of Alexander. They hypothesize that a revelation (dream) in the prophetic book "Daniel" (Doniyor) in the third part of the Torah (Tanach) – "Holy Writings" (Ktuvim) – is the first prophecy about Alexander, in which it was reported that Alexander would lay the foundation for a great empire in the future.

In this article, the fragments considered as the foundations of the subject in the Torah are studied in detail, as well as the information about the history of Alexander recorded in "The First Book of the Maccabees" (2nd century BC) from the non-canonical books of the Torah is analyzed. There were researched the compatibility of the information found in these two sources with the Eastern ones, the tradition of khamisa writing, in particular, the interpretations in "Khamisa" by Alisher Navai, or how they were changed in the process of transformation, as well as their causes.

**Key words:** *Alexander, Iskandar theme, Torah, genesis, transformation, the East, reception, artistic interpretation.*

### **References**

Dinovariy, Ahmad ibni Dovud. 1361 (h.). *Axbor at-tivol*. Tarjo'mayi Sodiq

---

<sup>1</sup>Ilyos A. Ismoilov – Doctor of Sciences in Philology (DSc), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** ismoilov@navoiy-uni.uz

**ORCID ID:** 0000-0002-8077-7914

**For citation:** Ismoilov, I. A. 2023. "The first religious-historical sources of Iskander theme". *Golden Scripts* 1: 35–52.

Nishot. Tehron: Bunyodi farhangi Ironyu

Dehlaviy, Amir Xusrav. 1988. *Oynayi Iskandariy. Matni intiqodiy*. Bo tas'hih-u muqaddimayi Jamol Mirsaidof. Masko'v: Sho'bayi adabiyoti Xovar.

Navoiy, Alisher. 1991. *Farhod va Shirin*. MAT. 20 tomlik. T.8. Toshkent: Fan.

Navoiy, Alisher. 2000. *Tarixi muluki Ajam*. MAT. 20 tomlik. T.16. Toshkent: Fan.

Navoiy, Alisher. 2006. *Saddi Iskandariy*. Toshkent: G'G'ulom nomidagi NMIU.

*Pervaya kniga Makkaveyskaya*. URL: <http://bibliya-online.ru/pervaya-kniga-makkaveyskaya-glava-6/> (25.04.2021)

*The Book of the gests of Alexander of Macedon. Sefer Toledot Alexandros ha-Makdoni. A mediaeval hebrew version of the Alexander romance by Immanuel ben Jacob Bonfils*. 1962. Edited and translated with introduction and notes by Israel J. Kazis, Ph.D. Massachusetts: The mediaeval academy of America.

*The Holy Bible*. 2000. New international version. Lutterworth: Gideon.

Tojiboyeva, O. 2020. "Iskandarnoma"larning nasriy manbalari xususida". *Oltin bitiglar-Golden Scripts*, 4: 122-136.

*Tolkovanie Dallasskoy seminarii*. URL: <https://bible.by/dallas/27/8/> (14.04.2021)

## MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

“Oltin bitiglar – Golden Scripts” jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma’naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo’lyozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo’ljallangan.

### I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo’lyozmalar yil davomida o’zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o’z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo’lsa, unda qo’lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo’lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo’yicha MS Word menejerini qo’llash lozim.

Barcha qo’lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma’lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig’i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o’ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo’lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so’zdan iborat bo’lishi kerak.

100–150 so’zdan iborat o’zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so’zdan kam bo’lmagan kalit so’zlar (o’zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo’lishi mumkin) 1500 so’zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so’ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### II. Maqola bo’limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to’q bo’yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o’zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo’lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o’ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (\*) ishorasi



qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

### **III. Maqolada tarjimalardan foydalanish**

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.



## 6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

### **Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:**

[Xondamir, Makorim, 17<sup>a</sup>]

## 7.2. Kitoblar uchun

### **Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

### **Matnda kitobga havola:**

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

**Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

**Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 131]

**Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

### **Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL.  
Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

### **Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

### **Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

## **7.3. Jurnal maqolasi uchun**

### **Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

### **Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

### **Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

### **Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

## **7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

**Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globalashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

**Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

**Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "*The Chicago Manual of Style, 16<sup>th</sup> Edition*" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.  
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi 103-uy.  
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com  
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2023-yilda ruxsat etildi  
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.  
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26 oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot  
agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)  
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan  
ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.  
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.  
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.: +99890 900 75 77,  
+99894 659 94 62